

Юқоридагилардан келиб чиқиб, республикамиз ва унинг ҳудудларида кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик соҳасини янада ривожлантириш учун қуйидаги таклифларни баён этамиз. Яъни:

1. Кичик бизнес субъектларининг ривожланишини самарали ташкил этиш бўйича аниқ мақсад ва стратегияни ишлаб чиқиш лозим. Бунда кичик бизнес субъектининг иқтисодий-инновацион ривожланишининг интеграл кўрсаткичларини аниқлаш ва истиқбол кўрсаткичларини белгилаб олиш мақсадга мувофиқ ҳисобланади.

2. Иқтисодий модернизацциялаш ва тузилмавий силжишлар асосида экспортни рағбатлантириш ва экспортга йўналтирилган ишлаб чиқаришни ривожлантиришга кенг имкониятлар яратилиши лозим. Бунинг учун кичик тадбиркорликнинг товар ва хизматларини ташқи бозорда муваффақиятли сота оладиган махсус ташқи савдо ташкилотларини ривожлантириш; сифатни бошқаришнинг

ҳалқаро тизимини амалиётга татбиқ этиш йўли билан товарлар рақобатбардошлигини ошириш; экспортга чиқарилаётган юкларга транспорт хизмати кўрсатиш самарадорлигини ошириш чора-тадбирларини ишлаб чиқиш зарур.

3. Ҳудудларда кичик тадбиркорлик субъектларининг барқарор ривожланишини таъминлашда қуйидагиларни амалга ошириш зарур: ҳудудий тадбиркорлик субъектларида ишлаб чиқариш самарадорлигини интенсив омиллар, ишлаб чиқаришнинг илғор шакллари ҳисобига ошириш; тадбиркорлик фаолиятини ривожлантириш мақсадида йирик миллий ва хорижий компанияларнинг бўлимлари, филиалларини жойлаштириш; туман ва шаҳарларда ҳудудий тадбиркорлик фаолиятини истеъмол товарлари ишлаб чиқаришга йўналтириш; туман ва шаҳарлар ўртасида ҳудудий тадбиркорлик субъектлари ривожланишидаги фарқларни камайитириш ва ҳ.к.

Манба ва адабиётлар рўйхати:

1. Ғуломов С.С. – Кичик бизнес ва тадбиркорлик асослари. Т.: 1996, - 130 б.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги ПФ-4947-сонли Фармони. Ўзбекистон Республикасининг Қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 йил, 6-сон, 70-модда.
3. Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси маълумотлари
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2016 йил 6 октябрдаги «Тадбиркорлик фаолиятининг жадал ривожланишини таъминлашга, хусусий мулкни ҳар томонлама ҳимоя қилишга ва ишбилармонлик муҳитини сифат жиҳатидан яхшилашга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги ПФ-4848-сонли фармони.lex.uz
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 20 ноябрдаги «Мамлакатда бизнес муҳитини янада яхшилаш ва тадбиркорликни қўллаб-қувватлаш тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ- 4525-сонли Қарори.lex.uz
6. Ўзбекистоннинг ижтимоий-иқтисодий ҳолати. Статистик тўплам. – Тошкент, Давлат Статистика қўмитаси, 2020 йил -143 бет.

BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA KICHIK BIZNESNI INTENSIV RIVOJLANISH STRATEGIYASI VA YALPI ICHKI MAHSULOT HAJMINI OSHIRISHNING SAMARALI YO'LLARI

**Tursunova Munisa Rahimjanovna –
"Sanoat iqtisodiyoti va menejment" kafedراسи
katta o'qituvchisi Toshkent kimyo-texnologiya instituti**

Annotatsiya: Maqolada kichik biznesning mohiyati, uning mamlakat yalpi ichki mahsulot hajmini rivojlantirishdagi roli va o'рни ko'rilgan. Bozor sharoitida kichik biznesni intensiv rivojlanish strategiyasi, intensivlashtirish darajasining va iqtisodiy samaradorligini o'sishini asoslari keltirilgan, bu jarayonni iqtisodiy tartiblashtirish va qo'llab-quvvatlashda davlatning ro'li ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: kichik biznes, tadbirkorlik, yalpi ichki mahsulot, xom-ashyo, ehtiyoj, investitsiya, innovatsiya, daromad, tovar, ishlab chiqarish, valuta fondi, soliq.

Аннотация: В статье рассматривается сущность малого бизнеса, его роли и место в увеличении валового внутреннего продукта страны. Дано обоснование стратегии интенсивного развития малого бизнеса в рыночных условиях, повышения уровня и экономической эффективности интенсификации, усилении роли государства в экономическом регулировании и поддержке этого процесса.

Ключевые слова: малый бизнес, предпринимательство, валовой внутренний продукт, сырье, спрос, инвестиции, инновации, выручка, товар, производство, валютный фонд, налог.

Abstract: The article examines the essence of small business, its role and place in increasing the country's gross domestic product. The rationale for the strategy of intensive development of small business in market conditions, increasing the level and economic efficiency of intensification, strengthening the role of the state in economic regulation and supporting this process is given.

Keywords: small business, entrepreneurship, gross domestic product, raw materials, demand, investment, innovation, revenue, goods, production, monetary fund, tax.

Har qanday jamiyat taraqqiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy o'zgarishlarning eng muhim omili bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa o'tish davrida bozor islohotlari turlicha namoyon bo'layotgan mamlakatlar, xususan, MDH davlatlarida bu tendentsiya yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Bunday sharoitda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ijtimoiy hayotda qator funksiyalarni bajaradi. Kichik biznes va tadbirkorlikni barqaror rivojlantirish uchun zarur bo'lgan qulay shart-sharoitlar yaratish – jamiyatda samarali amal qiladigan bozor munosabatlarini shakllantirish, mulkdorlar sinfini qo'llab-quvvatlash hamda fuqarolik jamiyatining yangi, demokratik institutlarini qaror toptirishning muhim shartidir. Bu muhim vazifa hamda uni hal qilishning butun murakkabligi har bir mamlakatning o'ziga xosligidan kelib chiqib, kichik biznes va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va uni rivojlantirishga noan'anaviy, nostandart yondoshishni taqozo qiladi. Shubhasiz, bunda, ushbu masalaning g'oyat muhim ahamiyat kasb etishini jamiyatning barcha a'zolari anglab yetishlari, uning davlat tomonidan har tomonlama qo'llab-quvvatlanishi, iqtisodiyotning davlat va xususiy sektorlari o'rtasida barqaror sheriklik munosabatlarini qaror toptirish zarur. Har qanday jamiyat taraqqiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy o'zgarishlarning eng muhim omili bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa o'tish davrida bozor islohotlari turlicha namoyon bo'layotgan mamlakatlar, xususan, MDH davlatlarida bu tendentsiya yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Bunday sharoitda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ijtimoiy hayotda qator funksiyalarni bajaradi. Kichik biznes va tadbirkorlikni barqaror rivojlantirish uchun zarur bo'lgan qulay shart-sharoitlar yaratish – jamiyatda samarali amal qiladigan bozor munosabatlarini shakllantirish, mulkdorlar sinfini qo'llab-quvvatlash hamda fuqarolik jamiyatining yangi, demokratik institutlarini qaror toptirishning muhim shartidir. Bu muhim vazifa hamda uni hal qilishning butun murakkabligi har bir mamlakatning o'ziga xosligidan kelib chiqib, kichik biznes va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va uni rivojlantirishga noan'anaviy, nostandart yondoshishni taqozo qiladi. Shubhasiz, bunda, ushbu masalaning g'oyat muhim ahamiyat kasb etishini jamiyatning barcha a'zolari anglab yetishlari, uning davlat tomonidan har tomonlama qo'llab-quvvatlanishi, iqtisodiyotning davlat va xususiy sektorlari o'rtasida barqaror sheriklik munosabatlarini qaror toptirish zarur.

Yalpi ichki mahsulot (YAIM) - mamlakatning iqtisodiy salohiyatini ifodalovchi asosiy

makroiqtisodiy ko'rsatkich hisoblanadi. U muayyan davrda rezident va norezidentlar tomonidan mamlakat hududida yaratilgan pirovard tovar va xizmatlarning bozor narxlaridagi qiymatini aks ettiradi.

Yalpi ichki mahsulot mamlakat iqtisodiy faoliyatining muayyan davr (oy, chorak, yil) davomidagi umumiy natijalarini tavsiflaydigan ko'rsatkich ham hisoblanadi. Mamlakat hududida joylashgan barcha korxonalar (chet el va qo'shma korxonalari ham shu hisobga kiradi) tomonidan jami ishlab chiqarish omillari bilan ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlarning bozor qiymatlaridagi ifodasi bo'lib, uning miqdori milliy hisoblar tizimi asosida hisoblab chiqiladi. Mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishini makrodarajada tavsiflash va tahlil etishda foydalaniladi. O'zbekistonning yalpi ichki mahsuloti Xalqaro valyuta fondining 2019-yildagi ma'lumotlariga ko'ra, \$60.490 milliardni tashkil etadi. Milliy statistikada asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkich sifatida YIM yoki yalpi milliy mahsulot (YMM), hatto yalpi milliy daromad (YMD) ham qabul qilinishi mumkin. Masalan, AQSH va Yaponiyada YIM emas, balki YMM asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkich hisoblanadi. Ammo BMTning milliy hisoblar tizimida YIM birlamchi iqtisodiy ko'rsatkich bo'lib xizmat qiladi. Miqdor jihatdan bu ko'rsatkichlar o'rtasidagi tafovut unchalik katta emas: rivojlangan mamlakatlarda bu tafovut bir foizdan oshmaydi. Chet ellarda ishlovchi fuqarolardan tushadigan daromadlar salmoqli bo'lgan mamlakatlarda bu tafovut katta-roq bo'lishi mumkin.

YAIM hajmining ortishi aholi turmush darajasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

- Birinchidan, YAIMning ortishi aholi daromadlarining ortishiga sabab bo'ladi. Masalan, o'tgan yili 1 tonna pomidor yetishtirilib, kilosi 1500 so'mdan sotilgan bo'lsa, jami daromad 1,5 million so'mni tashkil etadi. Bu yil esa xuddi shu yer maydonidan pomidor yetishtirishning zamonaviy texnologiyalaridan foydalangan holda 1,5 tonna pomidor yetishtirilib sotilsa, jami daromad 2,25 million so'mni (pomidor narxi o'zgarmagan deb olinisa) tashkil etadi.

- Ikkinchidan, yalpi ichki mahsulot hajmining ortishi natijasida byudjetga kelib tushuvchi soliq tushumlari hajmi ortadi. Bu esa davlat tomonidan aholini ijtimoiy himoya qilish imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.

- Uchinchidan, YAIM hajmining ortishi natijasida yangi ish o'rinlari yaratiladi va aholining ish bilan bandligi ortadi.

- To'rtinchidan, YAIM hajmining ortishi natijasida ichki bozorlar to'ladi va mahsulotlarning narxi barqarorlashadi.

Ma'lumki, oziq-ovqat sanoati milliy iqtisodiyotning oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaradigan keng tarmoqli sohasi hisoblanib, uning tarkibida go'sht-sut, sut-yog', yog'-moy, baliq mahsulotlari, un-yorma, makaron, meva-sabzavot konservalari, sharbatlar, turli-tuman ichimliklar, shakar, qandolatchilik mahsulotlari, non va boshqa noz-ne'matlar ishlab chiqaradigan korxonalar mujassamlashgan. Hech kimga sir emas, bugun dunyoda oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish va uning ta'minlash masalasi global muammolardan hisoblanadi. Mazkur muammo rivojlangan davlatlar bilan endi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun bir xil ahamiyatga ega. Shu ma'noda, respublikamiz aholisining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabini sifatli mahsulotlar bilan qondirish dolzarb masala hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ta'kidlaganidek, Yer yuzi aholisining tez ko'payib borayotgani bilan oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o'sish imkoniyatlari cheklangani o'rtasidagi tafovut oziq-ovqat dasturini hal etish masalasi yildan-yilga keskinlashib borayotganining asosiy sababi ekani haqida bugun ortiqcha gapirishning hojati yo'q, deb o'ylayman. Sodda qilib aytganda, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o'sishi aholi soni va ehtiyojlarining o'sishidan ortda qolmoqda. Bu tafovut, avvalo, oziq-ovqat mahsulotlarini jadal ishlab chiqarish uchun tegishli sharoitlar mavjud bo'lmagan mamlakat va hududlarda chuqurlashib bormoqda. Bu o'rinda gap, birinchi gal, atrof-muhitning ekologik jihatdan buzilishi hamon davom etayotgani, iqlim o'zgarishlarining oldindan aytib bo'lmaydigan oqibatlarini, tez-tez takrorlanayotgan qurg'oqchilik va suv resurslari taqchilligi, jumladan, sug'orish uchun yerosti suvlarining tugab borayotgani, irrigatsiya, melioratsiya va yerlarning unumdorligini qayta tiklashga yo'naltiriladigan investitsiyalarning yetarli emasligi haqida bormoqda. Yerlarning ekologik jihatdan buzilishi kimyoviy moddalar, mineral o'g'it va pestitsidlarini tinimsiz ishlatish oqibatida yanada kuchaymoqda. Bularning qatoriga urbanizatsiya, ya'ni shaharlashuv jarayonlari, aholining qishloqlardan shaharlarga ko'chishi bilan bog'liq muammolar ham qo'shilmogda.

Natijada, oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish uchun ekin maydonlari sezilarli darajada qisqarib ketmoqda, aholining ehtiyoji to'laqonli qondirilmayapti. Shuningdek, Xitoy, Hindiston kabi Osiyoning bir qator mamlakatlarida aholi daromadlarining jadal sur'atlar bilan o'sib, shunga mos ravishda oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilish hajmi ortib borayotganini ham e'tibordan soqit qilib bo'lmaydi. Oziq-ovqat mahsulotlarini

«daladan dasturxonga» sxemasi bo'yicha iste'molchiga yetkazib berishda ulkan yo'qotishlarga yo'l qo'yilayotgani ham salbiy omillardan biridir.

Respublikamiz mustaqillikka erishganining ilk davrlaridanoq, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirishga asosiy e'tibor qaratildi, ya'ni oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, aholiga uzluksiz va yetarli hajmda oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib berish hayotmamonat vazifalardan biri etib belgilandi. Jumladan, bu Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi ikki barobardan ziyodga oshdi. Bu mamlakatimiz aholisining qariyb 10 million kishiga yoki 30 foizdan ortiq ko'payishiga qaramasdan, jon boshiga to'g'ri keladigan go'sht iste'molini 1,3 barobar, sut va sut mahsulotlarini 1,6 karra, kartoshkani 1,7 barobar, sabzavotlarni 2 martadan ziyod, mevalarni qariyb 4 barobar oshirish imkonini berdi, yurtimizda har yili 16 million tonnaga yaqin meva va sabzavot yetishtirilmoqda. Aholi jon boshiga qariyb 300 kilogramm sabzavot, 75 kilogramm kartoshka va 44 kilogramm uzum to'g'ri kelmoqda. Bu optimal, ya'ni maqbul deb hisoblanadigan iste'mol me'yoridan uch barobar ko'pdir.

Ayni paytda oziq-ovqat uyushmasi meva-sabzavotni qayta ishlash, go'sht-sut, yog'-moy va oziq-ovqat sanoatining boshqa tarmoqlariga tegishli 200 ga yaqin korxonalarni birlashtirgan va ular bilan ham gorizontalar ham vertikal sifatda o'zaro munosabatlar tizimi yo'lga qo'yilgan. Agar uch yil oldin oziq-ovqat sanoatida yog'-moy va tamaki tarmoqlari salmoqli ulushni tashkil etgan bo'lsa, hozirda tarkibiy o'zgarishlar hisobiga mahsulotlarning 60 foizdan ko'prog'ini meva-sabzavotni qayta ishlash, go'sht-sut, qandolatchilik va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari tashkil qiladi.

Kichik biznes korxonalarida ishlovchilarning o'rtacha yillik sonini 2 barobarga oshirilganligi ham korxonalar faoliyatini yanada rivojlantirishga imkon berdi. Oziq-ovqat uyushmasi tashkil etilgandan buyon o'tgan 3 yil davomida uyushma korxonalarini tomonidan 121 ta loyiha amalga oshirilib, 198,4 mln. dollar investitsiya o'zlashtirildi. Shundan kelib chiqib, 2019 yilda aholining oziq-ovqat mahsulotlari bilan mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan ta'minlanish darajasini tahlil etadigan bo'lsak, go'sht va go'sht mahsulotlari 98,6 foiz, sut va sut mahsulotlari 99,8 foiz, foizi, makaron mahsulotlari 95,4 foiz, margarin 77,7 foiz, shakar 92,9 foiz, qandolat mahsulotlari 68,5 foizni tashkil etdi. Bugungi kunda respublikada oziq-ovqat xavfsizligi to'liq ta'minlangan va aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojining 90 foizidan ortig'i mahalliy ishlab chiqarish korxonalarini hisobiga ta'minlanmoqda.

Aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta-

minlashda importning ulushini kamaytirish yoki import qilmasdan mamlakatda sifatli va jahon standartlariga javob beradigan oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqaradigan korxonalar sonini ko'paytirish yoki mavjud korxonalarda innovatsiya loyihalarini amalga oshirishni talab qilinadi. Bunda, nazarimizda O'zbekiston Fanlar akademiyasi, ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan hamkorlikdagi ishlarni takomillashtirish zarur.

Innovatsiya loyihalarini amalga oshirish natijasida sifatli mahsulot ishlab chiqarishni tashkil etgan korxonalarga soliq imtiyozlari qo'llanib, undan iqtisod qilingan mablag'lar korxonani rivojlantirishga yo'naltirish ham yaxshi samara beradi.

Bundan tashqari, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlaydigan korxonalar quvvatlaridan to'laqonli foydalanish darajasini yanada oshirish zarur. Buning uchun xomashyo bazasini shakllantirish, ya'ni korxonalarni xomashyo mahsulotlari bilan ta'minlash lozim bo'ladi.

Qisqasi, oziq ovqat sanoati aholining asosiy ehtiyojini qondiruvchi tarmoq hisoblanadi. Bugunki kunda mamlakat iqtisodiy barqaror o'sishini, aholi farovonligini ta'minlash, aholini ijtimoiy himoya qilish, zaruriy birlamchi mahsulot-

lar bilan ta'minlash dolzarb masala hisoblanadi. Bu muammoni hal etishda mavjud resurslardan samarali foydalanish, oziq-ovqat sanoati korxonalarini takomillashtirish, modernizatsiya va diversifikatsiya qilish maqsadida chet el investitsiyalarini jalb etishni yanada kuchaytirish zarur. Buning natijasida oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyalarini takomillashtirish va ishlab chiqarish jarayonini tezlashtirish, yangi ishlab chiqarish liniyalarini joriy etish, mahsulotlar turini va sifatini oshirish, aholining iste'mol tovarlariga bo'lgan ehtiyojini to'liq qondirish imkoniyati yuzaga keladi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019-yilning yanvar-sentabrida O'zbekiston Respublikasi YaIM hajmi joriy narxlarda 361 858,4 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2018-yilning yanvar-sentabri bilan taqqoslaganda 5,7 % ga o'sdi. YaIM deflyatori indeksi 2018-yilning yanvar-sentabridagi narxlarga nisbatan 118,0 foizni tashkil etdi. Aholi jon boshiga hisoblangan YaIM 10 805,0 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3,7 % ga yuqoridir. Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaIMni ishlab chiqarish quyidagi ma'lumotlar bilan ifodalanadi:

1-jadval

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaIMni ishlab chiqarish

| YaIM | Mlrd. so'm | | Fizik hajm indeksi, % YaIM o'sishidagi 2018 yil 2019 yil hissasi, % | |
|--|------------|-----------|---|-----|
| | 2018 yil | 2019 yil | | |
| YaIM – jami | 290 161,9 | 361 858,4 | 105,7 | 5,7 |
| shu jumladan: Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati | 256 716,4 | 329 091,0 | 105,7 | 5,0 |
| qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi | 80 331,3 | 92 186,7 | 102,4 | 0,6 |
| sanoat | 65 351,2 | 96 227,9 | 107,0 | 1,6 |
| qurilish | 16 677,7 | 22 561,0 | 119,3 | 1,1 |
| savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 19 496,9 | 23 094,3 | 104,1 | 0,3 |
| tashish va saqlash, axborot va aloqa | 22 185,4 | 25 834,5 | 105,7 | 0,4 |
| boshqa xizmat tarmoqlari | 52 673,9 | 69 186,6 | 105,3 | 1,0 |
| Mahsulotlarga sof soliqlar | 33 445,5 | 32 767,4 | 105,6 | 0,7 |

2019 yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik (biznes) sub'yektlari tomonidan 188 182,7 mlrd. so'm miqdoridagi qo'shilgan qiymat yoki iqtisodiyotda yaratilgan jami qo'shilgan qiymatning 57,2 foizi yaratildi. Iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari bo'yicha yalpi qo'shilgan qiymatda kichik tadbirkorlik (biznes) ning ulushi, qurilishda 77,9 foiz, xizmat ko'rsatish sohasida 40,9 foiz va sanoatda 32,2 foizni tashkil etdi.

Hozirgi zamon jahon iqtisodiyotida mamlakatlar o'rtasida kapital harakatchanligi darajasi g'oyat yuqori. Natijada bir mamlakat kapitalining qandaydir bir qismidan chet elda foydalaniladi. Ayni paytda esa mamlakatning ba'zi aktivlari korxonalar, ko'chmas mulklar, qimmatli qog'ozlar

xorijiy fuqarolar va firmalar (nerezidentlar)ning egaligida bo'ladi. Nerezidentlar o'z mulklaridan olgan daromadlarining bir qismini vatanlariga o'tkazib turishlari natijasida yalpi ichki mahsulot miqsori bilan tegishli mamlakat ixtiyoridagi amaldagi yalpi daromad (YAMM) miqdori bir-biriga teng kelmay qoladi. Shu bois YAMM hajmini to'g'ri aniqlash uchun yalpi ichki mahsulotga mamlakatga uning chet ellardagi o'z fuqarolari mulkidan tushgan daromadlar bilan mamlakatdan chiqib ketgan chet elliklar daromadlari o'rtasidagi farqni qo'shish kerak. Chet eldagi mulklardan tushgan daromadlar saldosi ijobiy bo'lsa YAMM hajmi yalpi ichki mahsulotdan ko'p, aksincha holatda kam bo'ladi.

Manba va adabiyotlar ro'yxati:

1. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажигимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қураимиз. –Т.: Ўзбекистон, 2017. – 488 б.
2. Исаев Р.А. ва бошқалар. Ишлаб чиқаришни ташкил этиш ва бизнес-режа. –Т.: Тафаккур, 2011.
3. Багивев Г.Л., Тарасевич В.М., Анн Х. Маркетинг. - СПб.: Питер, 2008. – 348 с.
4. Болтабоев М., Қосимова М., Эргашходжаева Ш. ва бошқалар. “Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик” Дарслик. –Т.: “Иқтисодчи” - 2011 й. - 333 б.
5. Файбуллаев Р.М. “Тадбиркорликни ривожлантириш муаммолари” Монография. –Т.: “ФАН” – 2004 й. 50 б
6. <https://stat.uz>.
7. <https://xs.uz>.
8. <https://e-journal.uz>.

ДАВЛАТ-ХУСУСИЙ ШЕРИКЛИГИНИНГ МАЗМУНИ ВА ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ

*Мамаюсупова Диловархон Бегматовна -
Қўқон университети
Таълим кафедраси ўқитувчиси*

Аннотация: Илмий мақолада давлат-хусусий шериклиги (ДХШ)нинг мазмуни ва унинг ўзига хос хусусиятлари баён этилган. Хусусан, ДХШ моделлари ва механизмларни жорий этиш ва кенг қўллаш, шунингдек замонавий ДХШ шакллари ривожлантириш асосида давлат ва хусусий сектор ўртасидаги ҳамкорликни такомиллаштириш масалалари бўйича таклиф ва тавсиялар берилган.

Таянч тушунчалар: давлат-хусусий шериклик, бизнес-инкубатор, концессия, лизинг, контрактинг, стратегик бошқарув, иқтисодий ва коммуникатив мақсадлар.

Аннотация: в научной статье раскрыто содержание государственно-частного партнерства (ГЧП) и его особенности. В частности, были внесены предложения и рекомендации по внедрению и широкому использованию моделей и механизмов ГЧП, а также по развитию современных форм ГЧП для улучшения сотрудничества между государственным и частным секторами.

Ключевые понятия: государственно-частное партнерство, бизнес-инкубатор, концессия, лизинг, заключение договоров, стратегическое управление, экономические и коммуникативные цели.

Abstract: The scientific article describes the content of public-private partnership (PPP) and its specific features. In particular, suggestions and recommendations were made on the introduction and widespread use of PPP models and mechanisms, as well as the development of modern PPP forms to improve cooperation between the public and private sectors.

Keywords: public-private partnership, business incubator, concession, leasing, contracting, strategic management, economic and communicative purposes.

Кириш. Давлат-хусусий шериклиги (ДХШ) минтақавий ижтимоий-иқтисодий сиёсатнинг энг муҳим элементи ҳисобланади. ДХШ лойиҳаларини деталлаштириш талаб қилинадиган даражаси ва ўзига хослиги фақатгина шериклар ўртасида яқин алоқалар ва бир-бирларининг хусусиятлари тўғрисида тўлиқ маълумот мавжуд бўлгандагина таъминланади. Бунга, биринчи навбатда, минтақавий бошқарув органлари ва ДХШга кириш учун мурожаат қилган корхона ва ташкилотлар ўртасидаги алоқалар доирасида эришилади. Шу сабабли, давлат ва бизнес ўртасидаги ўзаро муносабатларнинг самарали институтларини ривожлантириш минтақаларда самарали ижтимоий-иқтисодий сиёсатни шакллантириш, уларнинг иқтисодий инфратузилмасини ривожлантириш, шунингдек, минтақавий иқтисодий тизимларнинг турли соҳаларида инновацион фаолиятни рағбатлантиришнинг муҳим шартидир. Шу муносабат билан қуйидаги тезисни илгари суриш муболаға бўлмай-

ди – айнан ДХШ Ўзбекистон Республикаси минтақаларининг муҳим давлат устуворликларидан бири бўлган ривожланишнинг инновацион йўлига ўтиш стратегиясини амалга оширишда фойдаланиш мумкин бўлган ҳақиқий механизмдир.

Мавзуга оид адабиётлар таҳлили. ДХШнинг турли шакллари ривожлантиришнинг назарий жиҳатлари Берслс В., Хаврапек П.М. [1], Друкер П. [2], Енджейчик И. [3], Леннон Дж. Джон, Смит Хью, Кокерелл Ненси, Трю Джил. [4], А.Ю.Александрова [5], Д.М.Амунц [6], Л.С.Барютин [7], М.Б.Биржаков [8], В.С.Боголюбов [9], Т.И.Бондарь [10], В.В.Бочаров [11], В.Г.Варнавский [12], В.А.Веткин [13] ва бошқа хорижий олимларнинг ишларида тадқиқ қилинган.

Замонавий шароитда ДХШни ривожлантириш муаммоларига Қ.Х.Абдурахманов [14], М.Р.Болтабаев [15], М.Э.Пўлатов [16], Н.Т.Тухлиев [17], И.С.Тухлиев [18], И.Иватов [19], М.К.Пардаев [20], З.Д.Адилова [21], Н.Юсупов,